

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

“Bog` va Parklarning dekorativ plastikasi”

Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma

Reyimbayev Sh. S.

Matniyazov Z. E.

Toshkent — 2017

Kirish.

Bu fan bo`lajak badiiy ustaga yuqori didli, boy fantaziyali, nafosat bilan, borliqqa ijodkorona yondosha oladigan mutahassislar bo`lib yetishishida muhim o`rin egallaydi. Ularni ilmiy-ijodiy izlanishiga chorlaydi. Mazkur “Bog` va parklar dekorativ plastikasi” kursi kasb hunar kollejining dizayn san`ati yo`nalishi bo`yicha rassomlar tayyorlaydigan mutahassislar uchun mo`ljallangan. O`quvchilar bu fanni o`qish chog`ida ma`ruza tinglaydilar, suhbatlarda qatnashadi, o`zlari ilmiy ma`ruzalar tayyorlaydi. Ma`ruza chog`ida rangli va rangsiz asar namunalari, diapozitivlarda ko`rsatiladi. Amaliy mashg`ulotlar seminar va ustaxonalarda landshaft dizayni haqida ma`lumot olish bilan birgalikda ularning kichik hajmdagi shakllari va chizmalari ustida ishlaydilar.

Bog` va parklar dekorativ plastikasi fani o`quvchilarning badiiy fikrlashini o`stirish bilan birga, bog` va parklarda yangicha ko`rinishdagi loyihalar yaratish, hayvonot va nabotot vakillarini stilizatsiyalash, favvoralar turlari ularni eskizlarini yaratishda homaki tasvirlar haqidagi ma`lumotlarni o`z ichiga oladi. Ushbu fanni o`rganish jarayonida Biologiya, Chizmatasvir, Rangtasvir, Perspektiva, Anatomiya fanlaridan o`quvchilar olgan bilimlarini qo`llash bilan birga, o`quv jarayonida nazariy, amaliy bilimlar olib, o`qitishning interaktiv, ko`rgazmali, amaliy uslublardan, matnli –vizual, audio –vizual, texnik vositalardan foydalaniladi.

1. BOG` VA DEKORATIV PLASTIKASI HAQIDA TUSHUNCHA.

Zamonaviy jahon madaniyati har qanday san'atning kata meros sohibidir. Arxitekturaning buyuk yodgorliklari, rassomlik, haykaltaroshlik va amaliy san'atni o'rganib, badiiy san'atning yana bir turini e'tiborsiz qoldirish mumkin emas. Bu albatta, – bog`dir.(1.1-rasm)

Bog` - inson tomondan mevali daraxtlar va butalar ekilgan maydon. Shuningdek, bog'da manzarali butalar, gullar o'sadi va tomorqa elementlari joylashishi mumkin.



1.1-rasm

Bog'lar, turli turda bo`lishi mumkin:

- Botanika bog'lari - dunyoning turli qismlaridan, turli iqlim zonalaridan jonli o'simliklar to'plamlarini namoyish etishga va tadqiqot uchun o'quv maqsadiga qaratilgan joy.
- Mevali bog' - ko'p yillik mevali daraxtlar ekilgan joy.
- Manzarali bog'lar
- Qishki bog`
- Yapon bog`i va uning turi - toshlar bog'i

- Xitoy bog'i

Shuningdek, ko`pincha tomorqada ekilgan reza mevalarni ham bog' deb atashadi. Bog'lar bilan shug`ullanuvchi qishloq xo'jaligi bo'limi, bog'dorchilik deb ataladi.



1.2-rasm

Bog`larni shakllantirishda uning dekorativ plastikasi katta ahamiyatga ega.

Dekorativ geoplastikasi –landshaft shakllantirishning qadimgi usullaridan biri bu yerda transformatsiya predmeti yer hisoblanadi. U qurilish materiali sifatida xizmat qiladi. (1.2-rasm)

Inson faoliyatining ko`p qismi qishloq xo'jaligidan tortib, arxitektura, muhandislik, sanoat va haykal obyektlarigacha geoplastika uslublaridan foydalanishadi. Landshaft dizaynida geoplastika maqsadni belgilashdan



1.3-rasm

boshlanadi. So'ngra mavjud bo'lgan yer ma'lumotlari va qurilish faoliyatining ehtimoli baholanadi.

Landshaft dizaynida geoplastika - vertikal tuzumining bir turi hisoblanadi. Sun'iy tepaliklar, grottolar va terassalar landshaft relyefini o'zgartirish imkonini beradi. (1.3,1.4-rasm)



1.4-rasm

2. STILIZATSIYA. O`SIMLIK STILIZATSIYASI, HAYVONLAR STILIZATSIYASI.

O'simlik dunyosi - jahon bezak san'ati mavjudligi davomida rassomlar, me'morlar va dizaynerlarning ilhom obyekti hisoblanadi. Qadimgi Misrdan boshlab ko'plab naqshlar hamda arxitekturaviy qismlari asosiga lotus gullari, aloe barglari va palmashoxlari olingan, modern uslubi uyg'onishidan avval XIX asrlar oxiri XX asr boshlarida osonlik bilan taniladigan orxideya gullari, iris, qushqo'nmas va boshqa o'simliklarni monumental va stanok bo'yash san'atidagi barcha turlarida qo'llashgan. Bu Flora mavzusi bitmas-tuganmas ekanligini ko'rsatadi.

Tabiat obyektlari ya'ni o'simliklarni hayvonot dunyosi – jonivorlar parandalar tabiiy ko'rinishidan ancha soddalashtirilib, eng ixcham ko'rinishlarda tasvirlashga stilizatsiyalash deyiladi. Boshqacha qilib aytganda, stilizatsiya-bu tabiiy shakllarni qayta ishlash demakdir. Stilizatsiyalash yo'llarini bilish, undan samarali foydalana olishni puxta o'zlashtirish -sanoat dizayni, reklama dizaynida, firma belgilarini yaratishda, tasviriy va amaliy san'atning barcha turlarida juda qo'l keladi.


Har bir badiiy uslubda, ma'lum bir tarixiy davrda naqshlar va o'simliklar asosida bezak elementlari uchun joy bor edi. Har bir davr muallifning individual didiga qarab va atrof-muhit bilan bog'liq o'zining namuna va stilizatsiyasini yaratdi, uni ijodiy qayta ishlash jarayonida esa yangi badiiy uslubi paydo bo'ldi.

Tabiat obyektlarini tahlil qilishda quyidagi:

- Obyektning harakterli harakatlari
- Obyektning tashqi ko'rinishdagi, xarakterli formalari
- Obyektning formalarini geometrik shaklarga moslash kabi jihatlarga e'tibor qaratish kerak bo'ladi.


Insoniyat rivojlanish jarayonida o'zi uchun zarur bo'lgan jamiki buyumlarni badiiy bezab, takomillashtirib kelgan. San'at va dizayn rivojlanishining hozirgi bosqichida, stilizasiya yanada keng ishlatilmoqda. Oddiy ro'zg'or buyumlaridan tortib, kiyim-kechak, kitob, bino bezaklari

hamma-hammasi naqsh elementlari yordamida bezatiladi. Xalq amaliy san'atida bezak elementlari tabiatda uchrovchi o'simlik dunyosi, gul, novda, barg va hayvonlar tasviri eng sodda ko'rinishlarda aks ettiriladi. (2.1,2.2-rasm)




2.1-rasm


Ma'lumki, har bir naqsh namunasi o'ziga xos naqsh elementlarini yig'indisidan iborat. Stilizasiya asosan o'simlik va hayvonot dunyosidan olingan turli shakllar masalan, butalar, novdalar, shoxlar, barglar, gullar, mevalar va shu kabilarning tabiiy shakllarini qayta ishlash demakdir. (2.3-rasm) Bunda tanlangan shaklni naqsh kompozitsiyasi tarkibiga qo'shish mumkin bo'lgan bezak shakliga keltiriladi. Buning uchun naqqosh butun bir yaxlit predmetning tashqi ko'rinishlarini bir nechta badiiy chiziqlar yordamida aniq lo'nda qilib tasvirlash talab etiladi. Xalq ustalari qadimdan qo'llab kelayotgan jami naqshlar tabiat hamda voqeilikning shartli tasviri bo'lishiga qaramasdan o'ziga xos qonun-qoidalarga ega. Bu qonun-qoidalar tabiatning o'zidan olingan. O'simliklar faqat bir tomonga qarab o'sadilar. Masalan, majnuntol xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyuladi, lekin novdadan barg bo'lib, bir tomonlama yo'nalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuni naqshda o'z aksini topgan. Usta chizadigan naqsh shunchaki qog'oz betini to'ldirish uchun emas, balki, ongli ravishda tabiat va badiiylik qonun-qoidalariga amal qilgan holda manzara tasvirini chizishdan iboratdir.



2.2-rasm



2.3-rasm






2.4-rasm

2.1 Tabiat shakllarining uslubga keltirilishi (stilizasiya)


Naqsh chizishni o'rganuvchilar ana shu usulni batafsil tushungan holda egallab olishlari lozim. Chunki ko'pgina naqsh kompozitsiyalari ana shu tarzda qayta ishlangan turli-tuman shakllar, tasvirlar yordamida tuziladi. (2.4-2.6-rasmlar)

Umuman olganda stilizatsiya birinchi o`rinda ijodiy ishdur. Van Gog, Sezan, Pikasso, Matiss, Leger, Lentulova, Filonov, Kuprin, Saryan va boshqa ko'plab horijiy va mahalliy rassomlarning mashhur stilizatsiyalangan ishlari butun dunyoga tanilgan.






O`simliklar stilizatsiyasi. Modern uslubi. 2.5-rasm



Daraxt stilizatsiyasi. 2.6-rasm



2.2 Hayvonlar stilizatsiyasi

Hayvonlarning stilizatsiyalangan tasviri ham muayyan uzatishni talab qiladi. Manzarali shakllarni kashf etishda, uni tabiiy faktura xossasidan foydalanish mumkin. Lekin shuni yodda tutish kerakki, bu faktura shaklni buzmasligilozim. Shuning uchun bezaklarni shakl yo`nalishi bo`yicha joylashtirish lozim. (2.7-rasm)













2.7-rasm

Keraksiz detallar siluet yaxlitligini hamda umumiy idrok qilish kompozitsiyasini murakkablashtirish mumkin. Siluet kesilmasdan, oddiy geometrik shaklga mos kelgani maqul. (2.8-rasm)




(2.8-rasm)






2.9-rasm

Bazan obyektning xususiyati yetakchi rol o'ynashi mumkin. (2.9-rasm)
Ataylab uning qiymatini bo'rttirib tasvirni “charxlash” mumkin. Tana shakli, tumshuq, qush patlari va boshqa qismlari tasvir xarakterini namoyon qiladi.



2.10-rasm

Dengiz oti tasviri shakli shunday darajaga olib kelganki, so'nggi stilizatsiyada ixtiyoriy qismni olib tashlasa boshqa ma'noni beradi. (2.10-rasm)




2.11-rasm

Tashqi ko`rinishdan tashqari, tasvirlayotgan hayvonning boshqa bir xususiyatibeligisini ifodalash mumkin.(2.11-rasm) Misol uchun, bir sigirning mo`rashi yoki tikilib turishini, tajovuzkor timsohni bildirib chizish mumkin.





2.12-rasm

Shilli-qurti va musiqlik acholg`usidagi spiral kabi grafik elementi mavjud, lekin har bir belgida muayyan element, ularning ma'nosini o'zgartiradi. (2.12-rasm)



2.13-rasm

Shunday chegara holatlar borki, birbelgi umuman hech narsani anglatmasligi mumkin yokishungao'xshashboshqa predmetni eslatishi mumkin. Bir predmetning shakli qandaydur element qo`shilishi bilan boshqa predmetga aylanishi mumkin. (2.13,2.14-rasm)



2.14-rasm

3. O`SIMLIK YORDAMIDA DEKORATIV RELYEF YARATISH

Vazifa: O`simliklar yordamida dekorativ relyef yarating. (3.1-rasm)



3.1-rasm

Relyef haqida tushuncha

Relyef (frans, relief, lot. relevo — ko'taraman) (yer yuzasi, okean va dengiz tubidagi tashqi ko'rinishi, o'lchamlari, kelib chiqishi, yoshi va rivojlanish tarixiga ko'ra turli tuman notekisliklar: tog', tekislik, adir, yassitog', tepalik, qir, vodiy, botiq, soylik, jarlar va boshqa pastbalandliklar majmui. (3.2-rasm). Relyef kattaligiga ko'ra quyidagi toifalarga ajratiladi:

- megarelyef (materik do'ngliklari, okeanlar tubi), shuningdek, bir qadar kichikroq bo'lgan shakllar (tog' sistemalari, tekisliklar);


- makrorelyef (tog' tizmalari, tog'lar oralig'idagi botiqlar, qirlar, pasttekisliklar);

- mezorelyef (jarliklar, suv osti kan'onlari, tepaliklar);

-mikrorelyef (karst chuqurliklari, jarlar, do'ng tepa, dasht tepaliklari va boshqalar);

-nanorelyef (juda kichik chuqurchalar, do'ngchalar va boshqalar).

Bu bo'linish shartli ravishda ajratilgan. Muhim orografik birliklarni tavsiflovchi relyefning tashqi yoki morfografik belgilari, shuningdek, uning miqdoriy xususiyatlari relyefni kompleks baholash uchun har doim ham ishonchli asos bo'la olmaydi, chunki bir xil tashqi ko'rinishga ega shakllarning kelib chiqishi va rivojlanishi turlicha bo'lishi mumkin.



3.2-rasm

3.1 Relyef va geoplastika

Zamonaviy landshaft san'atida relyef katta ahamiyatga ega. Shaharlarning o'sishi ularning yer fondini saqlab qolishiga undaydi. Shahar chegarasi kengayganda, topografiya va geologiya jihatidan qurilish uchun yaroqsiz


hududlarini, jarliklar, yon bag'irlari, siljish yon bag'irlarini o'z navbatida, ko`kalamzorlashtirish maqsadida rejalashtiriladi. Relyef landshaftning eng barqaror qismidir, u ekologikva plastik asosini tashkil etadi. Mavjud klassifikatsiyalar hamda landshaft san`atining xususiyatini hisobga olgan holda, 3 sinfga bo`lishimiz mumkin: ijobiy shaklli relyef, salbiy shaklli relief va neytral. Birinchi guruhga tog`, tepaliklar, ikkinchi guruh chuqurliklar, kotlavanlar, amfiteatrlar vayon bag`irlarni o'z ichiga oladi. Uchinchi guruhda katta qiyalikka ega bo`lmagan relyeflarkiradi.

Relyef shakli bog`ning hajmli tizimiga va maydon tashkil etishiga katta ta`sir etadi.(3.3-rasm)

Relyef shaklliga qarab bog`larni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: tekis yerdagi bog'lar, etaklarida, tepaliklardagi bog`lar, tog ' vodiylari, jarliklardagi bog`lar. Buzilgan joylardagi bog'lar maxsus guruhni tashkil etadi.(3.4-rasm)



3.3-rasm



3.4-rasm

1. Relyefda o'simliklardan foydalanishga misollar - terassada o'simliklarga urg'u berish.
2. Tepalikni guruhlab kuchaytirish,
3. -4 Obodonlashtirishga misollar.

4. HAYVONLAR STILIZATSIYASI YORDAMIDA HAJMLI RELYEF YARATISH.

Vazifa: Hayvonlar stilizatsiyani o`rgangan holda (2-mavzu) hajmli relyef yarating.

5. MOZAIKA HAQIDA TUSHUNCHA

Mozaika (frans. masaique — muzalarga bag‘ishlangan) — bir xil yoki turli xom ashyo (koshin, tosh, yogoch, marmar, metall va boshqalar) bulaklaridan ishlangan tasvir, naqsh. Mahobatli (monumental) bezak san’atining asosiy turlaridan. (5.1-rasm) Asosan, binolar, amaliy san’at asarlarini bezashda, dastgoh san’ati asarlari yaratishda qo‘llanadi. Mozaika yig‘ishning 2 xil usuli farqlanadi: naqsh (tasvir) mustahkamlovchi modda (ohak, sement, mum va boshqalar) surtilib bezatilayotgan yuzaga mayda bo‘laklardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri terib hosil qilinadi; teskari terishda rasimli qog‘oz yoki matoga bo‘laklar o‘ng tomoni bilan yopishtiriladi, so‘ng teskari tomoniga mustahkamlovchi modda surtilib, bezatilayotgan yuza (devor yoki shift) ga biriktiriladi.



5.1-rasm

Turli ranglarda bo‘yalgan doiralardan iborat eng qad. mozaika miloddan avvalgi 3ming yillikka mansub. Mozaika qadimiysharq mamlakatlarida, antik davr va o‘rta asrlarda Vizantiya, Italiya, Gruziya, Qad. Rusda rivojlangan. G‘arb. Yevropa san’atida bezak mozaikalar keng tarqalgan. (5.2,5.3-rasm)



5.2-rasm



5.3-rasm

Islom mamlakatlarida 13—14-asrlarda koshinli mozaika rivojlangan, qoliplar asosida ishlangan bo‘laklar yig‘ilib murakkab naqsh (tasvir) lar hosil qilingan. 14—15-asrlarda Samarqand va Buxorodagi binolar peshtoqiga ishlangan mozaikalar jozibadorligi bilan diqqatni tortadi.(5.4-rasm)



5.4-rasm



5.5-rasm

18-asrda Yevropada (jumladan, Rossiyada M.Lomonosov tomonidan) Mozaika qayta tiklangan (dastgoh portretlar va batal kompozitsiyalari yaratilgan). "Modern" va milliy romantik oqim ustalari mayolika (koshin)li M. usulidan foydalanganlar (ispan A. Gaudi, rus V. Vasnetsov, M. Vrubel va boshqalar). Yirik bo'laklardan tuzilgan mozaikada ko'zga tashlanuvchi mahalliy ranglar uyg'unlashtirib tuzilgan kompozitsiyalar kup uchraydi (R. Guttuzo, D. Rivera va boshqalar). (5.5-rasm)20-asrning 30-yillaridan san'atlar sintezi masalalariga qiziqish ortdi, mozaika ham rivojlandi.(5.6-rasm)



5.6-rasm

O'zbekistonda 60-yillardan (ayniqsa, Toshkent zilzilasidan keyin) mozaika keng tarqaldi, jamoat va turar joy binolari bezagida keng qo'llanilmoqda (Toshkentdagi Amaliy san'at muzeyi, "Paxtakor" metro bekati bezaklari va boshqalar). Asrlar davomida rivojlanib kelayotgan qad. koshinkorlik an'analari keng qo'llanilgan holda jamoat binolari, me'moriy obidalar ajoyib Mozaika

namunalari bilan bezatilmoqda: Imom Buxoriy yodgorlik majmui, Oliy Majlis bi-nosi, O‘zbekiston konservatoriyasi binosi va boshqalar

Mozaika turlari

Mozaika uslubiga ko'ra quyidagi turlari farq qilinadi:

1. Parketri
2. Intarsiya
3. Inkrustatsiya
4. Blokli mozaika

5.1 Parketri

Asosan to'g'ri burchakli, geometrik shakllar, ishlatiladi. Bunda juda oddiy tasvir chiqadi. Tasvirda abstraksiya yoki naqsh bo'lishi mumkin.

Eng keng tarqalgan ishlatiladigan materiallar, smalta va daraxt, odatda



juda qimmat turlari (Maun, gul daraxti, binafsha rang daraxt, palma daraxti, bir limon daraxti). Bunday rasmlarda, odatda metallar (mis) fil suyagi, toshbaqa qobig'I kabilardan foydalaniladi.(5.7-rasm)

5.7-rasm

5.2 Intarsiya

Intarsiyada mozaik tasvir figurali tasvir ko`rinishiga keladi.

Intarsiya Italiyada Uyg'onish davrida avj olgan edi. Mozaika bilan mebel, devorlar, asbob-uskunalarni bezatishgan. Materiallardan fil suyagi, tosh, lekin asosan, daraxt ishlatiladi.



Naqshlar ekzotik
o'simliklarni yoki
geometrik naqshlarni
eslatadi.(5.8-rasm)

5.8-rasm

5.3 Inkrustatsiya

Inkrustatsiya turli plastinalar kesilishidan amalga oshiriladi.

Bu usul usuli, juda kamdan-kam hollarda ishlatiladi. chunki uning yuqori murakkab va ko`p mehnat talab qiladi.(5.9-rasm)



5.9-rasm

5.4 Blokli mozaika

Blok mozaika - chizilgan yoki namuna donalaridan (bloklardan) iborat mozaik tur. Mozaikaning, bu turi, qadimiy Sharqda paydo boʻlgan boʻlib, italiyada chertozianskaya deb atalgan.

An'anaviy materiallari: smalta (xira shisha yoki shisha metall oksidi bilan), sopol, shisha, yog'och va marmar. Ekzotik materiallardan: qimmatbaho toshlar, fil suyagi (Yunoniston va Rimda keng ishlatilgan), yaxshi yog'och (qora, qizil, va hokazo) (5.10-rasm)


Yangi va noan'anaviy materiallarga singan tuxum puchog'ini toshli devorga darz ketgan effektni berish yoki gullash ta'sirini yaratish holatlarida ishlatiladi Bu ta'sirni kuchaytirish uchun odatda bo'yoqlar qo'shiladi



5.10-rasm

6. YO`LKA UCHUN MOZAIKA PLITKASINI YARATISH.

Birinchidan, yo`lka uchun mozaika plitkasini yaratishdan avval eng muhimi- funkcionallik. Qanchalik sizning yo`lkangiz chiroylik bo`lmasin, uni podiumga aylantirmaslik uchun yo`lak eng qisqa va eng qulay bo`lishi zarur.(6.1-rasm)



6.1-rasm

Ikkinchidan, muhimligi kam bo`lmagan, bu dizayner ishlatadigan materiallar. Agar siz har kuni verandani yuvishga tayyor bo`lmasangiz yo`lakni yaxlit qilib, tosh yoki beton bloklaridan foydalangan maqul. (6.2-rasm)



6.2-rasm

Unutmang hovlingizni dizayni yo`laklaringizni uslubidan farqli bo'lmasligi kerak.(6.3-rasm)



6.3-rasm

Alohida e'tiborni yo'laklar va to'siqlarga qaratish lozim. Dizayn qonunlariga ko'ra, ular bir xil uslubda yasalgan va birlashtiruvchi rang yoki dizayn elementlariga ega bo'lishi kerak.(6.4-rasm)



6.4-rasm

Odatda yo`laklarning eni hovlining maydonidan kelib chiqiladi. Standartga ko`ra 1-1, 5 metr, kichik dekorativ yo`laklar esa yarim metrdan oshmaydi.(6.5-rasm)



6.5-rasm

Bundan tashqari, bo`lajak yo`lak uchun o`ylangan chiroyli rejangizni e`tiborga olmasdan ham eng qisqa, tez marshrutlarni tanlagan maqul. Asosiy, keng chiziqlar birinchi o`rinda chidamli va qulay bo'lishi kerak, tor yo'llar esa - qiyinchiliksiz uy egalariga barcha yashirin zonalarga boorish imkoniyatini berish kerak. O'tkir burchaklar va xavfli qayilishlar bo`lmasligiga harakat qiling.(6.6-rasm)



6.6-rasm

Ustida suv qolmasligi uchun har ikki tomondan bir oz qiyalikka ega bo'lgani yaxshidir. Yo`lak bo'ston yoki gul orqali o'tadigan bo'lsa, uni har doim toza turishi maqsadida, uni yerdan bir necha santimetr yuqoriga ko'tarish zarur.(6.7-rasm)



6.7-rasm

Bog` yo`laklarini ishlatiluvchi materiallarga ko`ra guruhlarga ajratish mumkin: toshli, yog'och, beton va uyda bor materiallar. Oxirgi guruhimizga shishadan tortib plastik qopqoqlar bilan tugaydigan deyarli barcha materiallarni kiritish mumkin.(6.8-rasm)



6.8-rasm

6.1 Beton plitkalari

Bog` dekori uchun, eng tejamli va chidamli materiallardan aniq beton deb aytishimiz mumkin. Bunday yo`laklar sovuqqa chidamli, har qanday boshqa qoplamalarga qaraganda, ancha uzoq vaqt xizmat qiladi. Bundan tashqari, beton plitkalaridan noodatiy yo`lak qilib, har qanday shakl va hajmni berish mumkin. Hamda ustki rang qoplamini o`zgartirish ham onson, asosiysi maxsus bo`yoqlarni to`g`ri miqdorda va to`g`ri vaqtida kiritish lozim.(6.9-rasm)



6.9-rasm

Beton plitkalari modern uslubi va high-tech uslubida qilingan bog'larga, chiroyli ko'rinish beradi. Bu materialga xos qandaydir qattqlik va sovuqlik metall va plastmassaga mos keladi, shuningdek, bunday yo'laklarni yuvish va tozalash oson.

6.2 Tabiiy toshdan terilgan yo`lkalar



6.10-rasm

Ko'pchilik dizaynerlar, aynan shu materialni ham chidamligi jihatidan ham estetik tomondan eng yaxshi turi deb hisoblashadi. Aslida tosh, maysazor o'ralgan, gullar, butalar va daraxtlar orasida har qanday boshqa materialga qaraganda ancha tabiiy ko'rinadi.(6.10-rasm) Bu toshdan qaytaruvchi yagona narsa bu- yuqori narxi va qayta ishlovining murakkabligidir. Tosh yo'laklardan foydalanganda, eng yaxshisi uni suniiy bo'shliqqa aylantirmaslik uchun uning rang va teksturasini saqlab qolish lozim. Ayniqsa, marmar, labrador, granit, ohaktosh va basalt eng mashhur qoplamalar hisoblanadi. (6.11-rasm)



6.11-rasm

6.3 Shag`al

Shag`al toshdan foydalanish ehtimol eng qiyin bo`lmagan va eng arzon variantdir. Bunday yo`lak yaratishda aniq chegarani chizish va materiallarni to`g`ri miqdorda olish zarur bo'ladi.(6.12-rasm) Qoplamaning ushbu turi barcha bog`ga to`g`ri kelmaydi, bunday yo`lak bilan ishlaganda, loy bo`lib ketmasligi uchun atrofdagi loydan chegaralab himoya qilish zarur.(6.13,6.14-rasm)



6.12-rasm



6.13-rasm



6.14-rasm

Yana bir tez tez qo`llaniluvchi noyob material - bu mulcha. Mulcha- juda yirik qum yoki turli rangdagi mayda shag`al kabidir, bunda yo`laklarni chuqurlashtirib oldindan tayyorlab quyilgan joyga to`kiladi. Uning yagona kamchiligi - uni yomg'irli havoda atrofidagi yer bilan "murakkab" munosabatlari hisoblanadi.

6.4 G'isht-klinker

G'ishtli yo'lklar (boshqa qoplamalar nisbatan), parvarishlash talab, chidamliligi bilan ajralib turmaydi lekin, uning noyob, issiq ranglari va nisbatan arzonligi, e'tiborni bilan e'tiborni tortadi. Bundan tashqari, bu qoplama bilan ishlash - juda qiziqarli, demontaj qilish va uni yuvish juda oson.(6.15-rasm)



6.15-rasm



6.16-rasm

Ushbu turkum plitka yo`laklarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, kantri uslubidagi dizaynga juda mosdir. Iliq ranglar farovonlik qila oladigan muhitni yaratadi, istalgan loy, kirlarni yuvib tashlash mumkin, lekin plitakalar ustki qoplarning mo`rtligi ko'pincha qayta harajatlarga olib keladi.(6.16-6.17-rasmlar)



6.17-rasm

6.5 Taxta

Yog'och taxta atmosferani hech bir material bilanyengish mumkin emas. Yaxshi tashkil etilgan va suvga bardoshligiga to'g'ri qayta ishlangan taxtalardan qilingan yo'lkalar hovlini sharq ertagiga aylantirib har qanday mehmonni ajoyib Yaponiya dunyosining uyg'unligini va Xitoy intizomini his etishga undaydi. Bu qoplamalar doimo e'tibor talab etadi va doimiy emas, biroq sizning byudjet mablag'ingiz yetarli bo'lsa uni muntazam ravishda yaroqsiz taxtalarni yangilasangiz, bu qoplama siz uchun yaralgan.(6.18-rasm)



6.18-rasm

6.6 Qadam toshlar «Steppingstones»

XXI asrning eng noodatiy va mashhur yo`lak turi – yevropa yangiligi, so'zma-so'z tarjima qilganda "qadam-toshlar". Ko`pincha ularni hosil qilish uchun kesilgan xoda, katta toshlar yoki katta plitkalar ishlatiladi. Bundan tashqari, qayta ishlovga murakkab bo`lgan materiallar tobora mashhur bo`lib bormoqda, masalan plastik qopqoqlar yoki shisha bo'laklar va hakovzolar.(6.19-rasm)



6.19-rasm

Ayniqsa qadam toshlarning original xususiyati - quyma betonda ishlangani. Buni yaratishda qolip bilan sement sotib olinadi. Agarda sizga o`zining kulrang rangi yoqmasa, maxsus bo'yoq qo`shib bu muammoni hal qilish mumkin.(6.20-rasm)



6.20-rasm

6.7Qo'lda yasalgan yo'lkalar

Aralash yo'lkalar ko'pincha o'ylab chiqilmasdan, qurilish materiallari qoldiqlaridan yaratilgan bo'ladi. Bunday yo'lkalar hech qanday xarajatlarni talab qilmaydi va vaqtni tejaydi. (6.21-rasm)



6.21-rasm



6.22-rasm

Bog ' yo'lkalarini yaratish shakllari juda ko'p bor. Ular faqat narxlari bilan farqlanadi. (6.22-6.28-rasm)



6.23-rasm




Singan plitkadan terilgan mozaika –patio 6.24-rasm



6.25-rasm

Singan plitkadan mozaika terish sxemasi



6.26-rasm





6.27-rasm



6.28-rasm

7. ARXITEKTURA ELEMENTLARINGA BOG`LAB, BOG` VA PARKA YO`LKA YARATISH.

Vazifa: Arxitektura elementlariga bog`lab, bog` va parka yo`lka yarating va eskizini chizing.

Jamoat joylarida, bog` yoki parklarda albatta, arxitektura elementlarga urg`u berish lozimdir. Past to`siq, skameykalar, gul vazalari, toshlar, suv qurilmalari, manzarali o`simliklarni bir biriga bog`lab, ma`lum bir o`ylangan kompozitsiya asosida kiritish kerak. Maxsus rejalangan yo`lkani esa alleya tarmog`i deb atash mumkin. Yo`lka marshruti tog`ri yo`nalgan bo`lib kerakli punktlarga yetkazishi kerak. Yo`lkadan o`tuvchi aholi soniga mos ravishda bo`lishi kerak. Yo`lkada qayilishlarga u yerda tikanli o`simliklar halaqit qilmasligiga e`tibor berish lozim.(7.1-rasm)



Yo`lkaning qoplamasi bog` yoki park bilan uyg`unlashib uni chegaralovchi konstruksiya fakturasidan ajralib qolmasligi kerak

Bunday yo`lkalarga yaxshi yoritilgan bo`lishi kerak. (7.2-rasm) Bo`g`dagi yoritgichlar dekorativ xususiyatga ega bo`lsa yo`lkaning dizaynini yanada ko`rkamlashtiradi. Yo`lka fontan tomon tog`ri yo`nalgan bo`lib u yerda



7.2-rasm

hordiq uchun skameykalar bilan bog`langan bo`lishi kerak.

Fontan yoki sharsharadan tushuvchi suv shitirlashi yoqimsiz transport shovqinini yashirib turadi.

8. O`SIMLIK VA HAYVONLAR MAVZUSIDA YO`LKA UCHUN PLITKALAR YARATISH.

Vazifa: O`simlik va hayvonlar mavzusida yo`lka uchun plitkalar yarating va eskizini chizing.


Yuqorida plitkalarining turlarini va ularning qanqay qilib yaratilishi (6-mavzu) hamda hayvon va o`simliklarning stilizatsiya asoslari, turlari tahlil qilindi (2-mavzu). Ushbu 2 mavzuni birlashtirgan holda o`simlik va hayvonlar mavzusida yo`lka yaratib ko`ring.

9. «BOLALIK» MAVZUSIGA BOG' VA PARK LOYIHASINI YARATISH.

Hozirda maxsus bog'lar va parklar juda keng tarqalib kelmoqda. Ulardan biri bu bolalar bog'i yoki parki. (9.1-rasm)

Bolalar parkining asosiy maqsadi –bolalarga faol dam olishni tashkil etish, ularning jismonan rivojlantirish, ijodiy ishlarga, sinov sarguzasht istagini qondirish kabilardir.


Bolalar bog'larining mafkuraviy va ta'lim funksiyasi ham bog'dagi qurilmalarga bog'liq. Kattalar nazorati ostida bolalar bir-biri bilan quruvchi kasbini o'rganishadi, dengiz portidagi dengizchilarga taqlid qilishadi, tanishishadi va hakoza.



9.1-rasm

Bolalar istirohat bog'ining landshaftida tabiiy manzarali sharoitlarni aks ettirish maqsadga muvofiqdir - bular suv havzalari, «qishloq», "maydon" va "tog'lar" vadaryolar. (9.2-rasm)

Har bir joyda tegishli uskunalar joy olmog'i kerak masalan o'rmonda kulba, suvda kema. Floraning turli turlari bilan bolalar shu yerda ilk bor ko'rib tanishishadi yorqin gullar, meva va manzarali daraxtlar, - va hokazo. Bu yerdan qulay labirint, yashil tunnel "Xonalar", favvorali-surprizlar va boshqa qiziqarli zonalar joy olishi mumkin. Lekin to'siqlar ko'p bo'lishi kerak emas, iloji boricha maysazorli ochiq maydon tashqil qilishi kerak.



9.2-rasm

Bolalar bog'lariga faunakiritishga intilishadi. Hayvonlarni bolalar bilan aloqada bo'lishini jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun, kichik bir platform bilan kichik fermachalar, qushlar ga ozuqa berish, ekskursiya imkoniyaitini tashkil qilinadi.

Funksional joylar soni, uning maydan o`lchamiga bog`liq, u 3 gektardan 20 gektargacha o`rtacha intervalda bo`lishi mumkin. 10 dan ortiq gektar bog`da, funksional zonalari kengroqdir: madaniy-ma'rifiy, sport-sog'lomlashtirish, tabiat, sokin dam va aylanib yurishlar.

maydoni 50 gektardan oshgan bolalar parkini xodimlar tomonidan nazorat qilish qiyin.

Me'moriy inshootlar, maydonchalar uskunalar hajmini ma'lum yosh guruhlari bo'yicha ajratishadi. (2 ... 5, 6 ... 7, 8 ... 10, 11 ... 13, 14 yoshdan katta)

Bog`larning maxsus elementi “sarguzashli” “transportli” “o`yin shaharchalari” bo`lishi mumkin.

Sarguzasht maydonchalari deb atalmish va majmualar, ma'lum bir mavzu va uslubda bo`ladi. Qurilish maydonchalari bolalarni mustaqil konstruksiya qilishga undaydi. (9.3-rasm)

So`nggi yillarda transport sohadagi qurilish keng tarqalgan, pedal avtomobillar, velosiped va Skuter minish esa bolalarga yo`l qoidalarini o`rgatish



9.3-rasm

uchun mo'ljallangan. Bolalar yoshga qarab, landshaft sharoiti Tematik mazmuni har xil bo'lishi mumkin. (9.4-rasm)




9.4-rasm

Sport bog'lar o'z ichiga yashil landshaft o'rtasida joylashtirilgan bo'lib, sport, madaniy va ma'rifiy muassasalar, komplekslari bo'lishi kerak. Me'moriy va fazoviy tarkibi, birinchi navbatda, bu yerda musobaqalar o'tkazish va trenirovka qilish maydani bilan farq qiladi. Bu yerda lbinolar, va xiyobonlar boshqa bog'larga nisbatan hududining ancha katta qismini egallaydi. Ko`kalamzorlashtirishni shamolga qarshi, shovqinga qarshi, bir maromda quyosh tushishi, koptok ko`rinishi uchun bir rangli fon bo'lishi va shu kabilarni inobatga olish kerak. (9.5-rasm)



9.5-rasm



9.6-rasm



9.7-rasm

Sport va sogʻlomlashtirish funksiyasi – gidroparkalarda ham mavjud.
(9.6-rasm)

U ochiq suv havzalari, motorli qayiq, ochiq va yopiq hovuz, «Suv Bobslei» gidrokaruseli, suv trampolini, suzuvchi maydonlar, restoranlar, koʻpriklar va kanat yoʻllar bilan tashkil topadi.

Sport va sogʻlomlashtirishning yangi tendensiyalaridan bu uni yil boʻyi foydalanishga choʻzishga intilishdir. Basseyn suvini isitish, basseyn ustini yopiladigan qilib loyihalanmoqda, qiziqarli boʻlish maqsadida “dengiz toʻlqini” va shu kabilar qoʻyilmoqda. (9.7-rasm)

Oilalar uchun, bog`da gulzor, kulolchilik va haykaltaroshlik, ayvonchalar qilish mumkin. (9.8-rasm)



9.8-rasm



9.9-rasm

Har bir oilada yoshu keksalarga joy topib har bir kishini qondirishingiz mumkin. (9.9-rasm)

9.1 Terrasa - ovqatlanish joyi

Bog`ning umumiy tashkil etuvchi markazi bo`lib katta, shamol va ko`ngilsiz ob-havodan himoyalangan, ochiq havoda bayramlar qilishga mo`ljallangan maydoncha rejalashtish mumkin. Bunday terrasani gullar hamda yoritgichning har xil turlari bilan bezash mumkin. (9.10-rasm)



9.10-rasm

10. «SAN`AT» MAVZUSIGA BOG` VA PARK LOYIHASINI YARATISH.

Turli zamonaviy bog'lar orasida alohida ajralib turgan turi, bu-auditoriya bilan bog` belgilari va elementlari tilida "gapiruvchi" instalyasiyalar. (10.1-rasm)



10.1-rasm

Bir tomondan, ularni yangi texnologiyalar, usullar va yangi materiallardan foydalanganligi birlashtirsa boshqa tomondan, bu bog'lar landshaftning zamonaviy me'moriy tendentsiyalari va san'atning turli yo'nalishlari in'ikosi sifatida paydo bo'ldi. Buni biz art-landshaftlar deb atashimiz ham mumkin. (10.2-rasm)



10.2-rasm

Zamonaviy "Art-landshaftlar" shakllanishida qandaydir ma'noda an'anaviy landshaft obodonlashtirish texnikasi ta'sir etdi: o'simliklarni ekish va parvarish qilish usuli o'zgarishsiz qoldi. (10.3,10.4-rasmlar)



10.3-rasm


Bog' yaratishga yondashuv esa o'zgardi - zamonaviy bog ' yakun topgan kompozitsiyaga, muzey instalyasiyasiga o'xshaydi. XX asr oxiriga kelib "Art landshaft» shakllandi. Biz bu bog'larni - o'tgan asrning san'at qidiruvi natijasi deb aytishimiz mumkin.



10.4-rasm

"ART-landshaft" guruhida muayyan uslub yo`nalishlari bor. Bog` tarkibiga qarab ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Kinetik bog`
- bog' o'yini;
- eksponatlar bog`i;
- instalyatsiyalar bog`i
- sun'iy elementli bog'lar.




10.5-rasm

Oddiy bog` san`at darajasiga yetishi uchun avval vaqt kerak bo`ladi. Shunda bog` mazmuniga san`at kelib, bog` bilan birikib ketadi. Bog`ning san`at qiyofasiga kelishida beton o`rniga ouna ishlatilishiga materiallarga boshqa tarafalama qarashga olib keldi. (10.5-rasm)


11. FAVVORA HAQIDA TUSHUNCHA.

Favvora - biror manbadan chiqqan suv biror joyga tushib va yana qayta ishlatiladigan qurilma. Ular estetik zavq berish uchun o'rnatiladi. (11.1-rasm)



11.1-rasm

Favvora, fontan — sun'iy bosim ostida yuqoriga otiluvchi suv oqimi va uni hosil qiluvchi inshoot. Dastlab Favvoradan ichimlik suvi manbai sifatida ham foydalanilgan, keyinchalik shahar maydonlari, saroy va bog'larni bezash, havoni




11.2-rasm

salqinlashtirish vositasi sifatida qo'llanilgan. Favvoralar quduq, chashma, hovuz kabi suv inshootlari bilan bog'lik. (11.2-rasm)

Favvorada me'morlar tomonidan oqar suvning badiiyestetik jihatlari va shifobaxshligi namoyon qilingan. (11.3,11-4-rasm)

Ellinizm davrida me'moriy mujassamot markazini belgilashda daraxt, haykal bilan bir katorda Favvoralar ham muhim o`rin tutgan (Gerkulanumlaf "terassa" uylari va boshqalar). Ko'pincha serhasham qilib quriladi.



11.3-rasm

Favvoralarning bezak jihati Magʻribdagi haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan Madinash azZahra saroy majmuasida, jez va tilladan ishlangan alHumro saroyi l Favvora arida oʻz aksini topgan.

ShohAbbos davrida Isfahon (Eron) xiyobonida koʻpgina hovuzlarni Favvoralar jonlantirib turgan Yevropada Upgʻonish davri va Barokko davrlarida saroybogʻlar mujassamotida Favvoralar muhim oʻrin egallagan (mas, Tivolidagi d' Est'ye villasi, 1550—72, me'mori P. Ligorio). Klassitsizmning serhasham favvorolari (Versaldagi Katta kanal, Appolon va Laton favvorolari, Petrodvoretspagi Katta kaskad kabilar) ulugʻvorligi bilan ajralib turadi. Turkiyadagi favvoralar — chashmalar uy devoriga tutash peshtoqsimon yarim doira shiypon yoki rotunda ichiga qurilgan. 18-asrdan favvoralar ochiq maydonlarda murabba, koʻpburchak yoki doira tarhli qilib qurilgan, marmar bilan qoplanib, bejirim koʻrinishga ega boʻlgan; sirlari ravoklar, jez panjaralar bilan bezalgan (Turkiyaning Toʻpqopu saroyidagi favvoralar).



11.4-rasm

O'rta Osiyoda favvora qurilishi 14—15-asrlarda keng rivojlangan. Amir Temur bog'lariga ishlangan favvoralar haqida yozma ma'lumotlar saqlangan. Bu favvoralar suvlar maxsus moslamalar (sopol quvurlar) dan kelib, hovuzlarga tushib ariqchalar orqali tashqariga oqib chiqqan. Hovuz atrofi har xil rangdagi marmar toshlar, rangbarang gullar tasviri bilan bezatilgan.



11.5-rasm

Hovuzlarga quyiladigan ariqchalarning qirg'oklari ham marmar toshlar bilan qoplangan. Qo'lyozma kitoblar (Nizomiyni "Xamsa", Boburning "Boburnoma" va boshqalar) ga ishlangan miniatyuralarda favvoralar namunalari aks ettirilgan.

O'zbekistonda favvoralar, asosan, madaniyat va istirohat bog'larida, shahar maydonlarida, jamoat binolari oldida bunyod etilgan (Toshkentdagi teatr maydoni, 1947; Xadra maydoni, 1952—53; Navoiydagi "Farhod" va "O'zbekiston daryolari", 1970 va boshqalar). (11.5-rasm) Mustaqillik maydonidagi favvoralar (1970—74) katta texnik imkoniyatga ega bo'lgan, qator jo'mrakli, ajoyib manzarali murakkab muhandislik inshooti hisoblanadi.

Hozirgi zamon favvorolari fan texnika yutuqlari asosida bunyod etilmokda, oqshomda ular harakatdagi rangli nurlar bilan yoritiladi. Suvning shovullash ovozi musiqiy ohanglar bilan muvofiklashtiriladi.

Tabiiy shakllangan favvoralar, geyzerlar deb nomlanadi.



1-rasm

Lekin suyuqlik siftida nafaqat suv favvora bo'lgan - Petrov davrida bayram paytida shampan vinoli favvoralar bo`lgan. (11.6-rasm)



11.6-rasm

12. O`SIMLIKLAR MAVZUSIGA FAVVORA LOYIHASINI YARATISH

Vazifa: O`simliklar mavzusiga favvora loyihasini yarating, eskiz chizing.



12.1-rasm



12.2-rasm

13. HAYVONLAR MAVZUSIGA FAVVORA LOYIHASINI YARATISH

Vazifa: Hayvonlar mavzusiga favvora loyihasini yarating, eskiz chizing.



13.1-rasm



13.2-rasm


14. DEKORATIV FAVVORA LOYIHASINI YARATISH.

Dekorativ favvora tik ko'tarishiga ancha vaqt bo'lgani yo'q, dastlab uning maqsadi dalalarni va bog'larni sug'orish edi. (14.1-rasm)



14.1-rasm

Birinchi favvoralar, Misr va Mesopotamiyada ishlatilgan. Uni yaratishda marmar ishlatilgan. Qadimgi Rimda favvora tizimida suv tizimining bir qismi edi, vaqt o`tib favvora dekorativ favvoraga aylandi.



14.2-rasm



14.3-rasm

Vaqt o'tishi bilan favvora konstruksiyasi va dizayni o'zgarmoqda: uning oqimidan boshlab hovuz shakligacha. (14.2,14.3-rasm)

Bugungi kunda favvoralar bog'lar va istirohat bog'larida, manzarali, shahar qadriyatlari sifatida, bezak sifatida ham quriladi.

Agar siz park yoki bog 'ni bezashga qaror qilsangiz, siz - ham estetik, ham amaliy maqsadlarga erishgan bo'lasiz. Bog'dagi favvora nafaqat bezak uchun balki, bog'ning ekotizimini garmoniyada saqlab turishi uchun kerak.

Dekorativ favvora - jazirama issiq kunlarda har doim odamlar ko'p bo'lgan va sokin yoz kechalarida dam oladigshga mo'ljallangan maskan. Bahor kelishi bilan favvoralar ochilishini, bolalar va kattalar ham kutishadi.

Insonlarda suv tomchilari go'zalligidan bahramand bo'lish istagi bor, bu istaklarni dekorativ favvoralar qondirishadi.

Manzarali favvoralar - klassik va zamonaviy bo'lishi mumkin (14.4-rasm)



14.4-rasm

Manzarali favvoralar quyidagi shartlarga ko'ra tasniflanadi:

Hajmi va manzili bo'yicha:

- Ko'chada
- Ichki (xona yoki stolda)

dekorativ ijrosi bo'yicha:

- tabiiy landshaftlar yoki me'moriy inshootlar kompozitsiyasi;
- abstrakt kompozitsiyasi;

Klassik haykal favvoralarini alohida ko'rib chiqilishi mumkin.

Dinamik oqimi bo'yicha:

- suvning uzluksiz va bir xilda chiqishi;
- yorug'lik va tovush effektlariga bog'liq bo'lmagan, uzilib yoki bir maromda bo'lmagan oqim

•yorug'lik va tovush effektlariga bog'liq bo'lgan, uzilib yoki bir maromda bo'lmagan oqim

Yoritilishi bo'yicha:

- yoritgichsiz;


- bir rang bilan doimiy yoki dinamik yorug'lik bilan;
- turli rangdagi doimiy yoki dinamik orqa yoritish bilan.

Ovoz (musiqa) qo'llab-quvvatlashi bo'yicha:

- tovushsiz;
- doimiy musiqa bilan;
- dinamik oqim va yoritishga bog'liq tovush bilan.

ulanishi bo'yicha:

- doimiy ravishda – tagiga yoki devorga qotirilgan;
- harakatdagi - suzuvchi tuzilmalar.



14.5-rasm

So'nggi yillarda, dunyo bo'ylab "suzuvchito'p" favvoralari keng tarqaldi.

Gigiena xavfsizligini ta'minlash imkonini beradigan, ommani chanqog`ini qondirish maqsadida ichimlik favvoralari ham bor. Zamonaviy ichimlik favvoralarda suvni tozalovchi xususiyati bor. (14.5-rasm)

Inson tasavvuri keng va har tomonlama, bu dekorativ favvoralar ijodiga ham taalluqlidir. Butun dunyo bo'ylab, siz me'morlar va haykaltaroshlarning shoh asarlari topishingiz mumkin: Petergrofdagi «Samsona", Moskvadagi Xalqlar Do`stligi favvorasi va hakoza.

MUNDARIJA

Kirish.....	2
1. Bog` va dekorativ plastikasi haqida tushuncha.....	3
2. Stilizatsiya. O`simlik stilizatsiyasi, hayvonlar stilizatsiyasi.....	7
3. O`simlik yordamida dekorativ relyef yaratish.....	20
4. Hayvonlar stilizatsiyasi yordamida hajmli relyef yaratish.	24
5. Mozaika haqida tushuncha.....	24
6. Yo`lka uchun mozaika plitkasini yaratish.....	33
7. Arxitektura elementlariga bog`lab, bog` va parkka yo`lka yaratish.....	
8. O`simlik va hayvonlar mavzusida yo`lka uchun plitkalar yaratish....	68
9. «Bolalik » mavzusiga bog` va park loyihasini yaratish.	70
10. «San`at» mavzusiga bog` va park loyihasini yaratish...	
11. Favvora haqida tushuncha...	85
12. O`simliklar mavzusiga favvora loyihasini yaratish.	
13. Hayvonlar mavzusiga favvora loyihasini yaratish.	
14. Dekorativ favvora loyihasini yaratish.....	95











